



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

- 2 Chernov A.A. Ctanovlenie globalnogo informasionnogo oboshectva. Problemi i percpektivi. -Mockva: Izd Dashnikov i K: 2003. C. 5-6.
- 3 Al-Hoqandiy. Yangiliklar ham xalqaro tovar. [www.http://intiqom.uz](http://intiqom.uz). 2017 yil.19 oktyabr.
- 4 Karimov I.A Yukeak ma'naviyat - engilmac kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -112 b.
- 5 Kactele M. Vlact kommunikasi. GU VShE 2017. – S. 56.
- 6 Negodaev I.A. Na putyax k informasionnomu obshectvu. – Roctov-na-Donu: Izd. DGTU, 1999. – 135 c.
- 7 <https://maxdum.uz/ijtimoiy-tarmoqlarning-yos'hlar-ongiga-tasiri-2/>

O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT

Ergashev Kamoliddin Erkin o'g'li

tel: +998(91)4523031

@-mail: ergashevkamoliddin1995@gmail.com

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/FEXG1519

Annontatsiya :Diniy bag'rikenglik O'zbekistonning ko'p yillik tarixiy tajribasida turli e'tiqod vakillarining tinch-totuv hayoti davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lishini isbotlagan. Ko'p millatli xalqimizning yurt tinchligi, vatan taraqqiyoti yo'lidagi umumiy sa'y-harakatlari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning keng ko'lamlilik va jadalligini ta'minlamoda.

Kalit so'zlar :*Din, erkinlik, Millat, Jamiyat, Etiqod, Islom, Diniy bag'rikenglik, Diniy munosabat.*

Abstract :Religious tolerance Uzbekistan's long-term historical experience has proven that the peaceful coexistence of representatives of different faiths is one of the main factors in the development of the state and society. The common efforts of our multinational people for the peace and development of the homeland ensure the broad scope and intensity of the reforms being implemented in our country.

Keywords: *Religion, freedom, Nation, Society, Belief, Islam, Religious tolerance, Religious attitude.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk kunlaridanoq o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olib, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini topib bormoqda. Qadimdan yurtimiz hududida turli xil millat va elatlar, turli dinga e'tiqod qiluvchilar o'zaro

bahamjihatlikda yashab kelganlar. Tarixdan ma'lumki, vatanimiz tarixida turli din vakillari o'rtasida nizolar, kelishmovchiliklar va ziddiyatlar bo'lmagan, bunga sabab o'tmishda yashab o'tgan ajdodlarimiz o'z diniy e'tiqodlarida diniy bag'rikenglik tamoyillariga amal qilib kelganliklaridandir.

Yurtimizning aksariyat aholii e'tiqod qilib kelayotgan Islom dini ham yer yuziga nozil bo'lgan kundan boshlab, nafaqat musulmonlarga balki boshqa din vakillariga nisbatan ham bag'rikenglik munosabatda bo'lishni o'rgatib kelgan va kelmokda. Zero islom dini butun dunyo xalqlari o'rtasida ularning diniy e'tiqodlari yoki ijtimoiy tabaqalaridan qat'iy nazar, ular o'rtasida har qanday nizolarni adolatli hal qilishlikka chaqiradi. Bu xususda Alloh taolo Qur'oni Karimda marhamat qiladi: «Ey iymon keltirganlar! Alloh uchun (to'g'rilikda) sobit turuvchi, odillik bilan guvohlik beruvchi bo'lingiz: biror qavm (kishilari)ni yoqtirmaslik sizlarni ularga nisbatan adolatsizlik qilishga undamasin! Zero u (adolat) taqvoga yaqinroqdir. Allohdan qo'rqingiz! Albatta, Alloh ishlaringizda xabardordir»¹³.

Totuvlik va bag'rikenglik Islom dinining tamal toshi, e'tiqod va dinlar tarixidagi bir omildir. Shuning uchun ham Islom o'z ta'limotini insonlarga majburlab singdirishdan musulmonlarni man qildi. Alloh taolo Qur'oni Karimda shunday marhamat qiladi: «Dinda majburlash yo'q, zero, to'g'ri yo'l yanglish, yuldan ajrim bo'ldi...»¹⁴. Mana bu oyatni mazmunidan ko'rinib turibdiki, Alloh taolo o'z dini bo'lmish Islom dinini odamlarga yetkazishlikda diniy bag'rikenglik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishlikka undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan tarixiy nutqida ushbu dolzarb masalaga alohida e'tibor qaratib: "Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa

¹³ Моида сураси, 8- оят

¹⁴ Бақара сураси, 256- оят.

qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi", – deya ta'kidlagan edi¹⁵.

Bunday adolatli yondashuv xalqaro doiralarda keng muhokamalarga sabab bo'ldi. BMT Xavfsizlik Kengashining 2017 yil 21 dekabrda 2396-sonli rezolyusiyasida: "Terrorizm, zo'ravon ekstremizm hech bir din, millat va sivilizatsiya bilan aloqador emas va bog'liq holda talqin qilinmasligi kerak", deb qayd etildi.

O'zbekistonning Afg'oniston muammosini tinch yo'l bilan hal etish, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash borasidagi taklif va tashabbuslari ham mazkur g'oyani o'zida ifoda etadi.

Diniy bag'rikenglik O'zbekistonning ko'p yillik tarixiy tajribasida turli e'tiqod vakillarining tinch-totuv hayoti davlat va jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lishini isbotlagan. Ko'p millatli xalqimizning yurt tinchliligi, vatan taraqqiyoti yo'lidagi umumiy sa'y-harakatlari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning keng ko'lamliligi va jadalligini ta'minlamoqda.

Biz musulmonlar diniy bag'rikenglikning eng oliy na'munalarini payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomdan o'rganishimiz zarur. Ul zot sallallohu alayhi vasallam o'z hayotlari mobaynida boshqa din va e'tiqod vakillari haqlariga rioya etishlik bilan birga ummatlarini ham shu yo'lga da'vat qilib o'tdilar. Rasulullohdan (S.A.V.) rivoyat qilingan hadisda: «Xalqning barchasi Allohning izmidadir. Ularning Allohga mahbubrog'i ahliga naf beruvchirog'idir», deyilgan¹⁶. «Kim ahl zimmaga biror zahmat yetkazsa qiyomat kuni meni o'zining dushmani sifatida ko'radi»¹⁷.

O'zbekistonda davlat barcha dinlarga, barcha e'tiqod sohiblariga qonuniy asosda teng imkoniyatlar yaratib bergan. Hozirgi globallashtirish, o'zaro xalqaro madaniy almashinuvlar davom etayotgan bir jamiyatda turli dinga e'tiqod qiluvchilar birgalikda yashayotganliklarini inobatga olsak diniy bag'rikenglik tamoyiliga rioya qilib yashay nihoyatda zarur ekanligini va jamiyatda tinchlik taraqqiyotining eng asosiy omillaridan bir ekanligini anglab yetamiz. Yurtimiz mo'min-musulmonlari diniy bag'rikenglik an'analariga sodiq qolib, diniy va milliy ahillikka katta hissa qo'shib kelmoqdalar

¹⁵ Ш.М.Мирзиёев, Ўзбекистон Республикаси Президенти, БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқидан, ЎЗА, 20.09.2017й.

¹⁶ Баззор ривояти

¹⁷ Аҳмад ибн Ҳанбал, "Муснад"

Mamlakatimizda 15 ta diniy konfessiya mavjud bo'lib, 130 dan ortiq milat va elat vakillari unga a'zodirlar. Ularning barchasi turli xil diniy e'tiqodlarda bo'lishlariga qaramasdan bir-birlariga nisbatan o'zaro xurmat va ehtiromdadir. Bu esa yurtimizda olib borilayotgan diniy islohotlarning oliy namunasi, diniy bag'rikenglikning yorqin timsolidir.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma xil dinlarga e'tiqod qiluvchi va bir-biriga o'xshash bo'lmagan turli xalqlar, millatlar, yashagan va yashab kelayotgan o'lkadir. Qadim zamonlardan bizning yurtimizda zardushtlilik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi dinlar mavjud bo'lgan. VIII asrda Movarounnahrda kirib kelgan islom dini mahalliy xalqlarning axloq g'oyalari, huquqiy me'yorlari va urf-odatlari bilan uyg'unlashib, hozirgi O'zbekiston mintaqasida o'z bag'rikenglik xususiyati bilan ajralib turuvchi hanafiy mazhabi ta'limoti hamda ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me'yorlar uzul-kesil qaror topdi.

Mustaqillik yillari O'zbekistonda ushbu tarixiy an'anaga yangicha rux bag'ishlagan holda turli dinlarga mansub qadriyatlarni avaylab-asrashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilib, ushbu yo'nalishda boshqa davlatlarga namuna bo'ladigan boy tajriba orttirildi.

Bugun O'zbekistonda turli diniy tashkilotlarning o'zaro hurmat va hamkorlik asnosida faoliyat yuritib kelayotgani, davlatimiz tomonidan yuzlab masjid, cherkov, ibodatxona, ziyoratgoh va osori-atiqalar asl ko'rinishida ta'mirlanib, diniy tashkilotlar ixtiyoriga berilgani, dindorlarimiz muqaddas ziyoratlarni bajarishlari uchun alohida g'amxo'rlik ko'rsatib kelinayotgani, diniy ta'lim tizimi izchil rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilgani yuqoridagi fikrning yorqin dalillari hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalar kabi din va diniy tashkilotlar faoliyati to'g'risida ham turli islohotlar o'tkazildi.

Bu islohotlar zamirida mamlakatimizda istiqomat qiluvchi turli din vakillari orasidagi birdamlikni mustahkamlash, dindorlar orasida nizolar kelib chiqishining oldini olishga yo'naltirilgan.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ushbu maqsad yo'lida shahdam qadamlar tashlandi va respublikada vijdon erkinligi va dinlararo hamkorlik yanada mustahkamlandi. Bugungi kunda mamlakatimiz dinlararo bag'rikenglik tamoyillar asosida islohatlar olib boradi. Ushbu islohatlarning tub maqsadi davlatimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdan iborat. Bu maqsad yo'lida diniy konfessiyalarning ham o'rni beqiyosdir.

Biz yoshlar millatimiz, irqimiz, dinimiz qanday bo'lishidan qat'iy nazar, barchamiz O'zbekiston fuqarolarimiz va ushbu Vatan kelajagi bizning qo'limizda. Bugungi axborot texnologiyalari asrida bizning ongimizga bo'layotgan turli xil ta'sirlar, axborot xurujlari mafkuramizga, ma'naviyatimizga tahdid solmoqda. Ushbu tahdidlarga qarshi kurashda dinning bunyodkorlik, halollik va vijdon kabi tamoyillari eng samarali vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan diniy konfessiyalarning o'z faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishlari fuqarolarning birdamligi va yakdilligini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy urf-odatlarini, an'analari, tiliga ega. 140 dan ortiq milliy-madaniy markazlar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat qonun bilan mustahkamlangan.

Ta'lim muassasalarida 7 ta milliy tilda o'qitish ishlari, ommaviy axborot nashrlari 20 ta milliy tilda yo'lga qo'yilgan. Bu kabi millatlararo totuvlikni juda ham oz sonli mamlakatlardagina kuzatish mumkin. E'tibor bersak, ko'p mamlakatlarda nizolar asosan milliy va diniy asosda yuzaga keladi.

1991 yil 1 sentabrga qadar O'zbekiston hududida jami 211 ta diniy tashkilot faoliyat olib borgan. Shundan 149 tasi islomiy, 51 tasi xristian, 11 tasi yahudiy diniy tashkilotlari edi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda jami 2239 ta diniy tashkilot ro'yxatga olingan bo'lib, jumladan 2064 ta islom, 38 ta pravoslav, 5 ta katolik, 23 ta Yevangel xristian-baptistlar, 21 ta To'liq injil xristianlari, 52 ta koreys protestant cherkovlari, 9 ta Yettinchi kun adventistlari, 2 ta Yevangel-lyuteranlar, 3 ta Novoapostol cherkovi, 1 ta "Iegova shohidlari", 2 ta Arman-apostol cherkovi, 1ta "Golos bojiy", 8 ta Yahudiy

sinagogasi, 6 ta Bahoiiy, 1 ta Budda ibodatxonasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta O'zbekiston Bibliya jamiyati mavjud.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston respublikasida barcha din vakillariga ibodat va diniy ta'lim uchun qulaylik hamda erkinliklar yaratilgan.

Endi bir mushohada qilib ko'raylik, mamlakat fuqarolari orasida turli e'tiqod vakillari o'z ibodatlarini davlat ro'yxatidan o'tgan xavfsiz, obod ibodatxonalarda ado etishayotgan bo'lsa, hattoki buning uchun davlat tomonidan imtiyozlar berilayotgan bo'lsa, qanday qilib bu qonun ga bunday munosabatda bo'lish mumkin. Bundan tashqari respublikamizda 15 ta noislomiy diniy konfessiyaga mansub 174 ta diniy tashkilot rasman ro'yxatdan o'tib faoliyat yuritmoqda.

Shunga qaramay, missionerlik faoliyati bilan shug'ullanadigan ko'pgina diniy konfessiyalar mamlakatimizda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunni chetlab o'tib, o'zlarining yot g'oyalari, manfur maqsadlarini amalga oshirishga harakat qiladilar.

Ushbu missionerlik bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning muddaosi shundan iboratki, ular qanday yo'l bilan bo'lsada respublikada o'zlarining manfur g'oyalarini yoyish uchun imkon topishdir. Lekin ularning bu intilishlari aslida hech qaysi qoidalarga, hatto insoniylikka to'g'ri kelmaydi. Chunki insonning diniy e'tiqodiga tahdidlar va xurujlar vijdon erkinligidek fuqorolarning shaxsiy huquqlarini poymol qilish hisoblanib, qonun orqali tartibga solinadi.

O'zbekiston o'zining diniy qarashlarida ham, dunyoviy bilimlarni egallash hamda ichki va tashqi siyosat masalalarida ham o'ziga xos yo'lga egaki, bu dunyoning barcha davlarida ham bor holat emas. Xalqimizda azal-azaldan: "Qo'shning tinch-sen tinch",- degan maqol avloddan-avlodga o'tib kelayotgani bejiz emas. Zero, biz mustaqillikning ilk yillaridanoq dinlararo bag'rikenglik va millatlararo hamdo'stlik kabi ezgu g'oyalarni o'zimizning kundalik hayot tarzimizga aylantira olgan, kuchli davlatning erkparvar fuqarolarimiz. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada

rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning beshinchisi xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnihilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalarini ko'zda tutganini misol qilishimiz mumkin.

Mazkur bakalavr ilmiy darajasini olish maqsadida yozilgan bitiruv malakaviy ishi ham, mustaqilligimizning ilk yillaridanoq mamlakatimiz bilan ahil qo'shnihilik aloqalarini mustahkam saqlab kelayotgan, doimiy strategik sheriklik munosabatlarini yaxshilash uchun amaliy ishlar olib borayotgan mamlakat, Qozog'iston Respublikasidagi diniy holatning tahliliga qaratilgan. Tahlillar natijalari so'nggi 10 yilda terrorizm oqibatida jahon iqtisodiyotiga 583 trillion AQSh dollari miqdorida zarar yetkazilganini ko'rsatmoqda. Keyingi 15 yilda terrorchilik harakatlari natijasida 91 ming begunoh inson halok bo'lgan. Ularning aksariyati bolalar, ayollar va qariyalardir. Sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqib, o'z mustaqil yo'lini tanlagan bir qator davlatlar qatorida Qozog'iston Respublikasi ham mustaqillikning ilk yillaridanoq terroristik tashkilotlar tazyig'idan, dinni niqob qilgan radikal oqimlar vakillarining yoshlar orasiga o'zlarining buzg'unchi g'oyalarini tarqatishga urinish holatlaridan mustasno bo'lmadi. Bu kabi holatlar bugungi kunda ham ayrim xollarda o'zini ko'rsatib qolayotgani sababli mazkur muammo o'rganib chiqildi. Qozog'iston aholisining asosiy qismi e'tiqod qiladigan ikki din: Islom va Pravoslavlikning bu mamlakatda paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari bilan bir qatorda, davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar va bu munosabatlarga e'tiqod qiluvchilarning munosabati ilmiy manbalar orqali o'rganildi. Mazkur bitiruv malakaviy ishida Qozog'iston Respublikasida diniy konfessiyalararo munosabatlar hamda aholi, xususan yoshlar orasida diniy mutaassiblik va radikal oqimlar ta'siriga tushib qolish kabi salbiy holatlarning oldini olish borasida olib borilayotgan ishlar tahlil qilindi. Qozog'iston maktablarida dinshunoslik fanining o'qitilishi, dars beradigan pedagoglarning professional mahorati va bilimlari tanqidiy-tahliliy ravishda o'rganib chiqildi.

Terrorizm va ekstremizmning oldini olish maqsadida professional dinshunoslar tayyorlash masalasi ilmiy nuqtai nazardan o'rganildi. Qozog'iston Respublikasidagi mavjud diniy holat va diniy ekstremizm keltirib chiqaradigan oqibatlarning oldini olish masalasiga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy-siyosiy adabiyotlar mavjud. Shulardan Qozog'iston Respublikasi Prezidentining 2010 yildagi "Terrorizm va ekstremizm xavfining oldini olish va ogohlik choralari to'g'risida"gi farmoni, Qozog'iston Respublikasida 2013-2017 yillarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi turish yuzasidan davlat dasturi hamda A.Shambilov, S.Nысанбаев, A.Abdrasilкызы va D.Sabitov kabi ko'plab avtorlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Qozog'istondagi mavjud diniy vaziyatni o'rganish, Qozog'iston Respublikasida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida diniy ekstremizmga qarshi olib borilgan kurashning o'ziga xosligini o'rganishdan iborat. Qo'yilgan maqsadlarga yetishish uchun quyidagi bir qator vazifalarni hal etish zarur bo'ladi:

- Diniy konfessiyalar paydo bo'lish va rivojlanish tarixiy bosqichlarini izchil o'rganish va tahlil etish;
- Yoshlar va katta yoshlilar o'rtasida diniy qarashlar xilma-xilligi tufayli yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini qiyosiy tahlil qilish;
- Diniy ekstremizm paydo bo'lishining nazariy asoslarini o'rganib chiqish;
- XX asr oxiri va XXI asr boshlarida diniy ekstremizmga qarshi olib borilgan kurashning ko'rinishlari va usullarini tahlil qilish;
- Globallashuv jarayonlarida Qozog'istonning zamonaviy siyosiy hayotida diniy ekstremizmning tahlilini olib borish;
- Ekstremizmga qarshi tura oladigan, g'oyaviy jihatdan sog'lom yoshlarni tarbiyalash maqsadida Qozog'iston maktablariga kiritilgan dinshunoslik fanining o'qitilish jarayoni, darsliklar holati va pedagoglarning professional tayyorgarlik darajasini tahlil qilish orqali o'rganish;
- Professional dinshunoslar tayyorlay oladigan oliy ta'lim muassalari to'g'risida ma'lumotlar to'plash;

- Barchamizga ma'lumki, avvallari diniy ekstremizm individual xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, globallashuv asriga kelib, u milliy xarakter kasb etmoqda.

- Ming afsuski, ayrim manfaatdor kuchlar tomonidan terror tushunchasini tinchlik va insonparvarlik dini bo'lgan islom bilan yonma-yon qo'yish, zo'ravonlikni faqat islomga bog'lash orqali 1,6 milliardlik dunyo musulmonlariga nisbatan salbiy kayfiyatni shakllantirish, islomofobiyaning keng yoyishga harakatlar kuzatilmoqda. Bu esa jahonning turli mintaqalarida etno-konfessional ziddiyatlar vujudga kelishi, yangidan-yangi nizo o'choqlari paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Terrorizmni nafaqat islom, balki xristianlik, yahudiylik kabi boshqa dinlar bilan bog'lash ham aslo mumkin emas. Binobarin, barcha ilohiy ta'limotlar asosida insonni ulug'lash, unga munosib izzat-hurmat ko'rsatish g'oyalari yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni

2. Ahmad ibn Hanbal, "Musnad"

Internet saytlari:

1. www.UzA.uz

2. www.ziyonet.uz

3. www.e-islam.kz

YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA)

Rana Shirzad

Magistrant Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/NVGQ3292

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar hayoti muammolari global tendensiyalar kontekstida tahlil qilinib, ularning O'zbekiston va Afg'oniston misolidagi o'ziga xos jihatlari qiyosiy asosda o'rganiladi. Tadqiqot doirasida yoshlar bandligi, ta'lim tizimi, NEET fenomeni hamda ijtimoiy integratsiya masalalari ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, har ikki mamlakatda yoshlar muammolarining namoyon bo'lish xususiyatlari institutsional rivojlanish darajasi bilan bog'liq holda baholangan.

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

